



METHODOLOGY FOR TEACHING THE SUBJECT OF THE SYLLABLE IN ELEMENTARY GRADES

Narbayeva Khosiyat Adilbek daughter

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyoz Faculty of Turkic languages 2nd Stage Student of Uzbek language education in foreign language groups

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10972593>

ARTICLE INFO

Received: 06th April 2024

Accepted: 14th April 2024

Online: 15th April 2024

KEYWORDS

Vowels, consonants, method, primary class, "mental attack", "fish skeleton", syllable.

ABSTRACT

The effect of the correct Organization of the lesson in teaching the subject of the syllable in elementary grades and the use of methods "fish skeleton", "mental attack". Teaching the Uzbek language to the younger generation is considered one of the most relevant. To prevent spelling mistakes in social networks, the future generation should also master the native language well.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA BO'G'IN MAVZUSINI O'QITISH METODIKASI

Narbayeva Xosiyat Adilbek qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10972593>

ARTICLE INFO

Received: 06th April 2024

Accepted: 14th April 2024

Online: 15th April 2024

KEYWORDS

Unlilar, undoshlar, metod, boshlang'ich sinf, "Aqliy hujum", "Baliq skeleti", bo'g'in.

ABSTRACT

Boshlang'ich sinflarda bo'g'in mavzusini o'qitishda darsni to'g'ri tashkil qilish va "Baliq skeleti", "Aqliy hujum" metodlardan foydalanish samarasi. O'zbek tilini yosh avlodga o'qitish dolzarb masalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi imloviy xatolarning oldini olish uchun ham kelajak avlod ona tilini yaxshi o'zlashtirishi lozim.

Davlatning taraqqiy etishi va jahon miqiyosida o'z o'rniga ega bo'lishi bevosita yosh avlodga bog'liq. Yoshlarning davlat ravnaqiga hissa qo'shishi uchun vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashimiz kerak. Vatanga muhabbat qo'yish shu davlatning tarixini, adabiyotini o'rganishiga bog'liq. Chunki, bir millatni borlig'i adabiyot va tarixda mujassamlangan. Adabiyot ham tarix ham so'z degani, ya'ni til. Tilni o'rganish esa eng kichik qismdan boshlab o'rganiladi.

¹Bo'g'in bir havo zarbi bilan aytiladigan tovush yoki tovushlar birikasidir. Masalan: ona (o-na), ota (o-ta), bola (bo-la) kabi. Bo'g'in nutq oqimining tovushdan katta, so'zdan kichik (ba'zan bir so'zga teng) segment birligidir. Hozirgi o'zbek adabiy tilida olti ta unli mavjud

¹ Jamolxonov. H. Hozirgi o'zbek adabiy tili -Toshkent: Talqin, 2005.



bo'lib, so'z tarkibida nechta unli bo'lsa shuncha bo'g'in bo'ladi. Lekin shu vaqtda bo'g'inga ajratish bilan bo'g'in ko'chirishni bir – biri bilan almashtirib yubormasligimiz kerak. Bo'g'inga bo'layotganda bitta unli tovush ham alohida bo'g'in hosil qiladi. Ammo, biz uni bir qatordan ikkinchi bir qatorga o'tkazayotganimizda bir harfni ikkinchi qatorga alohida o'tkaza olmaymiz. ²Yana: unlilar bo'g'in hosil qiluvchi asosiy tovushdir, undosh fonemalar esa unli bilan birga qatnashadi, o'zicha bo'g'in hosil qilmaydi (sonantlar bundan mustasno, chunki ularda bo'g'in hosil qilish xususiyati bor). Shuning uchun bo'g'in tarkibidagi unli shu bo'g'inning cho'qqisi (“vershina sloga”) sanaladi.

Bugungi kunda unlilar mavzusi biroz bahsli hisoblanadi. Ayrim adabiyotlarda unlilar soni oltita deyilsa, ayrimlarida o'nta deyiladi. ³Vokalizm — o'zbek adabiy tilining unlilari tizimidir. U 6 ta fonemani — i, e, a, u, o', o tovushlarini o'z ichiga oladi. Hozirgi (kirillcha) o'zbek yozuvida bu 6 ta fonema uchun 10 ta harf (и, э, а, у, о, е, ё, ю, я), yangi (lotincha) o'zbek yozuvida esa 6 ta harf (i, e, a, u, o, o') ishlatiladi. Qoraqalpoq tilida unlilar soni to'qqiztani tashkil qiladi.

Yana unlilarning ovoz tovushlari deb atalishiga ham duch kelamiz.

⁴Ovoz va shovqin til tovushlari tarkibida turlicha qatnashadi. Ayrim tovushlarning tarkibi faqat ovozdan, ayrim tovushlarning tarkibi esa faqat shovqindan iborat bo'ladi. Birinchi tur tovushni ovoz tovush deb, ikkinchi tur tovushni shovqin tovush deb nomladik (Bular adabiyotlarda unli tovush va jarangsiz tovush deb yuritiladi). Hozirgi adabiy o'zbek tilining ovoz tovushlar tizimi – olti a'zoli: i, u, a, â, e, o. Ovoz tovushning boshqa tur tovushlardan farqli xususiyatlaridan biri shuki, yolg'iz o'zini talaffuz qilish mumkin. Maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilariga unlilar mavzusini tushinarli qilib o'tish juda muhim. Masalan o'zbek tilidagi *bilan*, *bilim* kabi so'zlarni talaffuz qilishda biroz farq qiladi. I tovushini yakka o'zini talaffuz qilishimiz va yuqoridagi bilim va bilan so'zlari tarkibidagi i tovushi bir- biridan farq qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishi qiyin. Ularga bu mavzuni o'zlashtirishida interfaol metodlardan foydalanish samara beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yinqaroq bo'ladi shu sababli tanlayotgan metodimiz, albatta, ularni faollikka va aqliy fikrlashga, topqirlikka, zukkolikka undashi kerak. Metodlardan foydalanish jarayonida kaetma – ket o'yinli metodlardan ham foydalanish ham ularni zeriktirib qo'yishi mumkin. Demak, metodlarni ketma – ketligini to'g'ri tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning nutqini ravonlashtirishda, albatta, mutolaa katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning eslab qolish qobiliyati turli xil bo'ladi. Ayrim o'quvchilarning ko'z orqali, ayrimlarining quloq orqali va yana ayrimlarining yozish orqali eslab qolishi oson bo'ladi. ⁵O'qituvchi ta'lim jarayonida interfaol ta'lim yordamida o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z- o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib boorish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushinish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr- mulohazalarni erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish,

² Jamolxonov. H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: Talqin, 2005

³ Jamolxonov. H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: Talqin, 2005

⁴ Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006

⁵ Ro'ziyeva. D., Usmonoyeva. M., Holiqova. Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. – Toshkent 2013



muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarga bo'g'in mavzusini o'tishda "Baliq skeleti" grafik organayzeri, "Aqliy hujum" strategiyasidan foydalanish samarali usul hisoblanadi. "Baliq skeleti" grafik organayzeridan foydalanish o'quvchilarning mavzuning mohiyatini tasvirlash va muammolarga yechim topish qobiliyatini shakllantiradi.

"Aqliy hujum" strategiyasini qo'llash o'quvchilarda mavzu xususida keng fikr yuritish, o'z tasavvurlaridan, g'oyalaridan hamda malaka va ko'nikmalaridan to'g'ri foydalanishni shakllantiradi. O'quvchilarning dars davomida o'zlashtirgan bilimlarini tekshirishda samarali usul hisoblanadi va ularning darsga mas'uliyat va e'tibor bilan qatnashishini ta'minlaydi.

References:

1. Jamolxonov. H. Hozirgi o'zbek adabiy tili -Toshkent: Talqin, 2005.
2. Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006
3. Ro'ziyeva. D., Usmonoyeva. M., Holiqova. Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. – Toshkent 2013